

**TOVARLARNI VAQTINCHA OLIB KIRISH BOJXONA REJIMIGA
RASMIYLASHTIRISHDA BOJXONA TO‘LOVLARI**

*Faxxodov Farrux Furqatovich,
Bojxona instituti Bojxona tartibga solinishi va
bojxona to‘lovleri kafedrasi o‘qituvchisi.
Email: farrux.faxxodov@gmail.com,
ORCID: 0009- 0004-2041-3504*
*Murodullayev Feruz Otabek o‘g‘li,
Bojxona instituti 4-kurs kursanti.
Email: genuinemuradillaev@gmail.com,
ORCID: 0009-0000-4976-0738*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bojxona organlarida tovarlarni vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga rasmiylashtirish tartibotlari va undiriladigan bojxona to‘lovleri tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: bojxona rejimi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari, bojxona, bojxona nazorati, davriy to‘lov, identifikatsiya.

**ТАМОЖЕННЫЕ ПЛАТЕЖИ ПРИ ОФОРМЛЕНИИ ТОВАРОВ ПОД
ТАМОЖЕННЫЙ РЕЖИМ ВРЕМЕННОГО ВВОЗА**

Фарходов Фаррух фуркатович,
преподаватель кафедры таможенного регулирования и таможенных платежей
Таможенного института. email: farrux.faxxodov@gmail.com,
ORCID: 0009 - 0004-2041-3504
Муродуллаев Феруз Отабек угли,
курсант 4 курса Таможенного института. email: genuinemuradillaev@gmail.com,
ORCID: 0009-0000-4976-0738

Аннотация: В данной статье анализируются процедуры оформления товаров на таможенный режим временного ввоза в таможенных органах, а также рассматриваются соответствующие таможенные платежи, взимаемые при применении данного режима. Кроме того, приводится анализ актуальных проблем в сфере временного ввоза и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: таможенный режим, участники внешнеэкономической деятельности, таможня, Таможенный контроль, периодическая оплата, идентификация.

THE CUSTOMS PAYMENTS DURING THE CLEARANCE OF GOODS UNDER THE TEMPORARY IMPORTATION CUSTOMS REGIME

Farhodov Farrukh Furkatovich,

teacher of the Department of customs regulation and customs duties of the customs Institute. email: farrux.farxodov@gmail.com, ORCID: 0009-0004-2041-3504

Muradillayev Feruz Otabek o'g'li ,

4th year cadet of the Customs Institute.

e-mail: genuinemuradillaev@gmail.com, ORCID: 0009-0000-4976-0738

Abstract: "This article analyzes the procedures for customs clearance of goods under the temporary importation customs regime by customs authorities, as well as the applicable customs payments levied within the framework of this regime. In addition, the article provides an analysis of current issues related to temporary importation and proposes possible solutions.

Keywords: customs regime, participants in foreign economic activity, Customs, Customs Control, periodic payment, identification.

Tovar va transport vositalarining davlat bojxona chegaralari orqali erkin harakatlanishi zamonaviy iqtisodiy tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, vaqtinchalik olib kirish bojxona rejimi davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, bojxona tartibotlarini soddalashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim o'rinn tutadi.

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi mamlakatga xorijiy tovarlarni muayyan muddatga olib kirish imkonini beruvchi bojxona rejimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu rejim xalqaro miqyosda 1990-yil 26-iyunda Istanbulda qabul qilingan "Vaqtincha olib kirish to'g'risidagi konvensiya" bilan tartibga solinadi¹.

O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga 2020-yil 24-aprelda qo'shilgan² bo'lib, bu xalqaro bojxona amaliyotlariga moslashish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Shu asosda, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2020-yil 30-iyundagi "Vaqtincha olib kirish to'g'risidagi konvensiyani qo'llash tartibi to'g'risidagi" 3264-sonli nizom bilan tasdiqlandi³. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan tovarlarni bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda Vaqtincha olib kirish to'g'risidagi Konvensiyani qo'llash tartibini belgilaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi

¹ <https://www.wcoomd.org/en/about-us/legal-instruments/~/media/2D53E23AA1A64EF68B9AC708C6281DC8.ashx>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2020-yildagi PQ-4694-son Qarori, <https://www.lex.uz/uz/docs/-4797920>

³ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 30.06.2020-yildagi 3264-son Nizomi, <https://www.lex.uz/uz/docs/-4912261>


“Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-57-son Farmoni⁴ bilan Bojxona ma’muriyatçiligin shaffoflik va ishonchlilik tamoyiliga asoslangan sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, bojxona sohasida huququzarliklarning oldini olish maqsadida Vaqtincha olib kirishda bojxona bojlari va soliqlar to‘lashdan shartli ozod etiladigan ayrim tovarlar ro‘yxati, imtiyoz berish muddatlari va shartlarini qaytadan ko‘rib chiqish topshiriqlari berilgan.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha olib kirish bojxona rejimining rasmiylashtirish tartiblari va amaliyotdagi o‘ziga xos jihatlari tahlil qilib, mavjud muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha o‘rganildi va takliflar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga muvofiq, bojxona rejimlarining 16 turi mavjud bo‘lib, bulardan biri vaqtincha olib kirish bojxona rejimidir. Vaqtincha olib kirish bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovar bojxona hududiga muayyan muddatga olib kiriladi va bojxona to‘lovlaridan shartli ozod etilgan yoki davriy bojxona to‘lovleri to‘langan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo‘llanilmagan holda undan vaqtincha foydalilanildi. Vaqtincha olib kirish muddati tovar vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan e’tiboran ikki yilni tashkil etadi.

2024-yilda vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga jami 3046 ta bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiyalshtirilib, 242,8 mlrd so‘m bojxona to‘lovleri undirilgan.

Vaqtincha olib kirish bojxona rejimiga tovarlarni rasmiylashtirishda bojxona to‘lovlaridan shartli ozod etiladi yoki davriy bojxona to‘lovleri undiriladi.



1-rasm. Vaqtincha olib kirish bojxona rejimida bojxona to‘lovleri qo‘llanilishi⁵

Vaqtincha olib kirilayotgan ayrim tovarlarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to‘lashdan shartli ozod etish qo‘llaniladi. Bunday tovarlarning ro‘yxati va ozod etish shartlari, shuningdek vaqtincha olib kirilgan tovarlarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to‘lash bo‘yicha imtiyozlarning amal qilish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davriy bojxona to‘lovlarini to‘lagan holda tovarlarni vaqtincha olib kirishda,

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025-yildagi PF-57-son Farmoni, <https://www.lex.uz/uz/docs/-7451997>

⁵ Bojxona kodeks talablari asosida muallif ishlanmasi

tovarlar vaqtincha olib kirish bojaxona rejimida turgan har bir to‘liq va to‘liq bo‘lmagan kalendar oy uchun, ushbu tovarlar vaqtincha olib kirish bojaxona rejimiga joylashtirilgan kunda import bojaxona rejimiga joylashtirilganda to‘lanishi lozim bo‘lgan bojaxona bojlari va soliqlar summasining besh foizi miqdorida chet el valyutasida hisoblab chiqariladi.

Shundan kelib chiqib, davriy bojaxona to‘lovlarini hisoblab chiqarish uchun quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$DT_1 = \frac{(B + Q + A) \cdot 5\%}{K_{con}}$$

Bu yerda:

DT_1 – shartnomada valyutasida bir oylik davriy to‘lov;

B - hisoblangan import bojaxona boji summasi;

Q - hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

A - hisoblangan aksiz solig‘i summasi;

K_{con} – shartnomaning valyuta kursi.

Bojaxona rasmiylashtiruvni uchun bojaxona yig‘imi bojaxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilayotgan bir vaqtning o‘zida undiriladi.

Shundan so‘ng, davriy to‘lov to‘lanadigan kuni O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan valyutalarning rasmiy ayirboshlash kursi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to‘lanadi va O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgetiga o‘tkaziladi. Davriy bojaxona to‘lovlarini hisoblashda tovar vaqtincha olib kirish bojaxona rejimiga joylashtirilgan kuni amalda bo‘lgan bojaxona to‘lovleri stavkalari qo‘llaniladi.

Shartnomada valyutasida jami davriy bojaxona to‘lovlarini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanmiz:

$$DT_{jami} = DT_1 \cdot O_s$$

Bu yerda:

DT_{jami} – shartnomada valyutasida jami davriy to‘lov;

DT_1 – shartnomada valyutasida bir oylik davriy to‘lov;

O_s - tovari vaqtincha olib kirilgan to‘liq va to‘liq bo‘lmagan oylar soni.

Davriy bojaxona to‘lovlarini to‘lab tovari vaqtincha olib kirish bojaxona rejimiga joylashtirayotgan shaxs quyidagi huquqlarga ega:

- to‘lanishi lozim bo‘lgan bojaxona to‘lovlarining umumiy summasini to‘lash;

- tegishli davr boshlanguniga qadar davriy bojaxona to‘lovlarini har oyda yoxud yilning har choragida to‘lash.

To‘lanadigan davriy bojaxona to‘lovlarining umumiy summasi tovar vaqtincha olib kirish bojaxona rejimiga rasmiylashtirilgan kuni erkin muomalaga chiqarish (import) bojaxona rejimiga joylashtirilgan taqdirda to‘lanishi lozim bo‘lgan, chet el

valyutasida hisoblab chiqarilgan bojxona to‘lovlaringin summasidan oshmasligi lozim.

Hozirgi kunda amaliyotda ayrim tovarlar vaqtincha olib kirish bojxona rejimi rasmiylashtirilib, amal qilish muddati o‘tgan holda, yakuniy bojxona rejimiga rasmiylashtirilmashdan nazoratda qolish holatlari, davriy to‘lovlarni vaqtida to‘lamaslik kabi holatlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- vaqtincha olib kirilgan tovarlar bo‘yicha barcha jarayonlarni o‘z ichiga oluvchi avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishlab chiqish va ushbu tovarlar rasmiylashtiruvini to‘liq raqamlashtirish, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish;

- amal qilish muddati tugashidan oldin vakolatli shaxsni va bojxona xodimini avtomatik ogohlantirish tizimi joriy qilish;

- Davriy bojxona to‘lovlarni to‘langan tovarni import bojxona rejimiga joylashtirilgan taqdirda vaqtinchalik olib kirishning butun davrida davriy to‘langan import bojxona bojlari, soliqlar qiymatidan foizlar to‘lash taklifi beriladi;

- davriy bojxona to‘lovlarni avtomatik undirish mexanizmini joriy qilish, ya’ni undirish muddati kelganda, manfaatdor shaxsning shaxsiy hisobvarag‘idan kerakli summani avtomatik ravishda yechib olish. Agar to‘lovchining hisobida yetarli mablag‘ bo‘lmasa, dastur tomonidan avtomatik ravishda qarzdorlikni belgilangan muddatda to‘lash haqida ogohlantiruvchi elektron xabarnoma yuborilishi shart.

Xulosa qilib mazkur rejimni yanada takomillashtirish uchun normativ-huquqiy bazani kuchaytirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga qulaylik yaratish, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vaqtincha olib kirish to‘g‘risidagi Konvensiyani. Istanbul, 1990-yil 26-iyun.
2. Фарходов, Ф., & Муродуллаев, Ф. (2025). Особенности оформления товаров в таможенный режим временного ввоза. Modern Science and Research, 4(4), 418-430.
3. Фарходов, Ф. Ф. (2024). Божхона хизмати фискал фаолиятига таъсир этувчи омиллардан самарали фойдаланиш йўллари. Indexing, 1(1).
4. Фарходов, Ф. Ф. (2024). Божхона хизмати фискал фаолиятига таъсир этувчи омиллардан самарали фойдаланиш йўллари. Indexing, 1(1).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2020-yildagi PQ-4694-sun Qarori, <https://www.lex.uz/uz/docs/-4797920>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 30.06.2020-yildagi 3264-sun Nizomi, <https://www.lex.uz/uz/docs/-4912261>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025-yildagi PF-57-sun Farmoni, <https://www.lex.uz/uz/docs/-7451997>.
8. O‘zbekiston Respublikasining 18.10.2018 yildagi O‘RQ-502-sun Qonuni, <https://www.lex.uz/uz/docs/-4000640>.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.06.2016 yildagi 212-son qarori, <https://www.lex.uz/uz/docs/-2989939>.
10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 19.11.2010-yildagi 2156-sun Nizomi, <https://www.lex.uz/uz/docs/-1703865>.